

## DEVELOPING THE ETHICAL QUALITIES OF FUTURE EDUCATIONAL MANAGERS

**Z.D.Abralova**

"Pedagogy and management of continuing education"  
department teacher

**Abstract:** High scientific and methodological knowledge and high skills of management staff are the main link in the huge creative work carried out to ensure that the younger generation grows up to be fully developed, educated, highly spiritual, harmonious, patriotic individuals. is crucial. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5538 dated September 5, 2018 "On additional measures to improve the management system of public education" The tasks of introducing modern principles of personnel policy formation in the public education system through the implementation of advanced and transparent organizational and legal mechanisms of professional development have been identified.

## BO‘LAJAK TA‘LIM MENEJERLARINING AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Z.D.Abralova**

“Uzluksiz ta‘lim pedagogikasi va menejmenti”  
kafedra o‘qituvchisi

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma‘naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida boshqaruv xodimlarining yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak mahoratga ega bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 farmonida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta‘limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Axloq – ma‘naviyatning amalda namoyon bo‘lishi. U ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik ma‘naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo‘ladi. Ma‘naviyat – his etiladigan, anglandigan, oqilonalikka asoslangan botiniy qudrat bo‘lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o‘zgalarga nisbatan ma‘naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloqiy tushunchalar ayni paytda, ma‘naviy tushunchalar sifatida e‘tirof etiladi. Zotan axloq insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, saxovatpeshalik va bag‘rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g‘amxo‘rlik singari ma‘naviy tushunchalarni insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma‘naviy hodisa.

Rahbar shaxsining axloqiy madaniyati - individ tomonidan axloqiy ong orqali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta‘siri ostida qay darajada chuqur va uyg‘un ekanligi ko‘rsatkichidir. Rahbar shaxsining ma‘naviy fazilatlarini – deganda rahbar tilida aytilib, dilida va barcha xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan barcha ijobiy ko‘rsatkichlari tushuniladi. Rahbar shaxs ma‘naviy fazilatlarini unda mavjud bo‘ladigan iste‘dod, izlanish, zamonaviy bilimlilik, vatanparvarlik, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e‘tiqod, poklik, halollik, vafodorlik kabilarni tashkil qiladi. Rahbar shaxs mas‘uliyati – rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo‘lib, uning ma‘lum sohaga javobgarligini aks ettiradi. Alohida shaxs, xodim mas‘uliyatidan farq qilib, ko‘lami kengligi ushbu mas‘uliyatni unutish oqibatlarini salmog‘i b-n ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas‘uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas‘uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o‘zgalar oldiga, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Rahbar shaxs ma‘naviyati–rahbarning ma‘naviy madaniyati bu–rahbarda shakllangan (ichki) ruhiy quvvatdir. Rahbar shaxs ma‘naviyati qanday bo‘lishi kerak? Uning

asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Birinchi Prezidentimizning har bir chiqishlarida ana shu masalalar ham o'z aksini topa boshladi: —kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin. Demak, rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni —inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat deb bilish tashkil qiladi. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining birinchi elementi insonni qadrlashdir. Bu ulkan mas'uliyat hissini paydo qiladi. Axloqiy madaniyatni shakllantirish mazmuni va jarayonini shakllantirishning asosiy uslubiy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

- axloqiy madaniyat uning dinamikasi, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda menejerni kasbiy tayyorlashning pedagogik quyi tizimi sifatida qaraladigan tizimli-funksional yondashuv;
- bo'lajak mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va uning ijodiy kasbiy faoliyati samaradorligini aniqlashga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlari, ularning boshlang'ich predmet kompetensiyasi darajasi, predmetlarni tayyorlash uchun motivatsiyasi xususiyati va darajasini hisobga oladigan tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bo'lajak mutaxassisning axloqiy tayyorgarligi mazmunini aniqlash nuqtai nazaridan o'quv rejalari intizomlarini birlashtirishga, professiogrammda belgilangan tipik vazifalar asosida fanlarni o'qitishni modernizatsiya qilishga imkon beradigan profil yondashuvi, fanlarning kasbiy yo'nalishini kuchaytirish.

Menejment madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunki tashkilotning har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak. Menejment madaniyati elementlarining turli-tumanligi menejmentjarayonida turli-tuman me'yorlarga, jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. O'rta asrlarda yashagan, mashhur olim Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyotida rahbarning xizmati benihoya katta ekanini ta'kidlab, o'zi orzu qilgan adolatli jamiyat rahbari bir qator fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini alohida uqtirib o'tgan. Uning nazarida har bir rahbar: sog'-salomat bo'lishi; nozik farosatli bo'lishi, fikrlarni tezda ilg'ab olishi va umumiy ahvolni ravshan tasavvur etishi; ko'rgan va eshitganlarini xotirasida to'liq saqlay olishi; zehni o'tkir va o'zi zukko bo'lishi; o'z fikrini ravshan va chiroyli so'zlar bilan tushuntira olishi; ilmu ma'rifatga doimo intilishi; o'z nafsini tiya olishi; haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevishi; o'z qadrini biluvchi, pastkashlikdan yuqori turuvchi, or-nomusli va oliyhimmat inson bo'lishi; mol-dunyoga qiziqmaydigan bo'lishi; haqsizlik va razolatga qarshi murosasiz adolatparvar inson bo'lishi; qat'iyatli, jur'atli va jasur bo'lishi lozim. Forobiy bu talablarni har bir rahbarning zimmasiga bejiz qo'ymagan, chunki yuqorida sanab o'tilgan oliy insoniy fazilatlariga ega bo'lgan inson nafaqat o'zining barkamolligi, balki boshqalarning baxt-saodati yo'lida ham ko'p xayrli ishlarni amalga oshira olishi shubhasiz.

Tadqiqotlarda esa ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda bilim, ko'nikma, malakadan tashqari rahbarning shaxsiy sifatleri, kasbiy tayyorgarligi va ma'naviy-axloqiy sifatlariga bog'liq, deb ko'rsatiladi. Aslida rahbar har qanday vaziyatlarda o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqishi, ko'pchilik dardi bilan yashashi, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy mahoratga ega bo'lishi, so'zi bilan ishi bir bo'lishi, vijdonli, adolatli bo'lishi, samimiy, vazmin, bag'rikeng, ijodkor, bunyodkor, talabchan, mehribon va albatta xushmuomala bo'lishi kerak.

Menejning axloqiy madaniyatini biz uchta darajada amalga oshiriladigan hodisa sifatida tushunamiz: intellektual (kognitiv) - menejmentning axloqiy asoslarini bilish, ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish potentsial qobiliyati; ehtiyoj-motivatsion-muloqotning axloqiy me'yorlariga rioya qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga e'tibor berish; xulq-atvor - jamoada ishlash qobiliyati, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish, halollik, odob-axloq va hamkasblar uchun g'amxo'rlik namoyon bo'lishi.

N.Y.Sorokinaning "Bo'lajak menejerlarda axloqiy qadriyatlarga rioya qilish qobiliyatining shakllanishi" nomli ilmiy maqolasida bo'lajak menejerlar faoliyatida muhim hisoblangan uchlik: "Sadoqat- nishon-majburiyat"ni ko'rsatib o'tgan. Sadoqat-menejning axloqiy tamoyillarga sodiqligi, nishon- menejning axloqiy tartibda boshqaruv qarorlarini qabul qilish istagi, majburiyat-menejning axloqiy qadriyatlar va tamoyillarga asoslanib, muassasa manfaatlarini himoya qilishga tayyorligi. U muassasani boshqarishda axloqiy tamoyillarga rioya qilgan holda menejning motivatsiyasi, intensivligi va izchilligini belgilaydigan

integral xususiyat sifatida ishlaydi. Rahbarning faoliyatida belgilovchi muhim omil, bu uning keng ma'nodagi obro'si masalasidir. Rahbarning obro'sini ob'ektiv va sub'ektiv omillarbelgilab beradi. Ob'ektiv omillarga rahbarning jamoaga boshchilik qilish vakolatiga egabo'lishi, xodimlarga munosabatda va muassasa masalalarini hal qilishda davlat vakili sifatida ish ko'rish, tashkilotdagi ko'pgina masalalarni yakka boshchilik asosida hal qilish huquqiga ega bo'lgan mavqeda turishi kiradi. Sub'ektiv omillar - rahbarning obro'sini belgilaydigan o'ziga xos bo'lgan umumijtimoiy, kasbiy va pedagogik sifatlari bo'lib, ularga uning tashabbuskorligi, o'ziga yuklangan ishni bilishi, prinsipiialligi, mustaqil o'z fikriga ega bo'lishi, insonparvarligi, mehribonlik va o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi va samarali bo'lishida menejerning o'zida muayyan sifatlarni namoyon eta olishi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Rahbar shaxsida namoyon bo'ladigan ma'naviy axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlari boshqaruv faoliyatining samarali natijasini kafolatlaydi. Shu sababli bo'lajak menejerlar ham o'zlarida ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishga e'tibor qaratishlari, o'z ustilarida izlanishlari lozim.